

## **SUG'ORILADIGAN YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI**

***Jumayev Ramil Chorshanbiyevich***

*Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti*

*E-mail: [ramil.9094@gmail.com](mailto:ramil.9094@gmail.com)*

***Annotatsiya:*** Ushbu ishda sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanishni tartibga solish tizimini takomillashtirish masalalari bayon etilgan. Shuningdek, mintaqalarda suv xo'jaligi kompleksini boshqarishni tashkil qilish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

***Kalit so'zlar:*** suv xo'jaligi, sug'oriladigan yerlar, suvni taqsimlash, suv xo'jaligi kompleksi.

Qishloq xo'jaligi sohasida suv resurslaridan foydalanishni boshqarishdan ko'zlangan asosiy maqsad – suvdan maqsadli, samarali va oqilona foydalanish, suv isrofgarchiligiga barham berish va foydalanilgan suv samaradorligini oshirishdan iborat. Boisi, respublikamizda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning asosiy sohalaridan biri hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mamlakatimizda jami iste'mol qilinadigan suvning 91 foizi qishloq xo'jaligi sohasiga to'g'ri keladi. Bundan ko'rinadiki, ushbu sohaning rivoji bevosita qishloq xo'jaligi ekin maydonlarini meliorativ holatini yaxshilash, irrigatsiya tarmoqlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash, ishchi holatini saqlash va boshqa agrotadbirlarni o'tkazish, ekinlar hosildorligini oshirish suv resurslari ta'minoti bilan bog'liq bo'lib qolmoqda. Bu esa o'z navbatida, respublikamizda ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qator meyoriy-huquqiy hujjatlar asosida, ya'ni "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-oktabrdagi "Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi PQ-4486-son, 2018-yil 17-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3672-son Qarorlari va boshqalar asosida amalga oshiriladi[1-3]. "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, irrigatsiya va melioratsiya tizimlari davlat boshqaruvini O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va idora osti tashkilotlari amalga oshiradi. Ushbu Vazirlik suv xo'jaligini boshqarish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi, shuningdek suvdan ratsional foydalanish, suv resurslarini muhofaza qilish, suvning zararli ta'siridan ogohlantirish va uni tugatish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar xo'jalik boshqaruvi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi. Hozirgi vaqtda Suv xo'jaligi vazirligi tizimida Qoraqalpog'iston Respublikasi suv xo'jaligi vazirligi, 12 ta irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi, 53 ta irrigatsiya tizimlari va magistral kanallar boshqarmasi, 153 ta tuman irrigatsiya bo'limlari, 14 ta energetika va nasos stansiyalari boshqarmalari, 13 ta meliorativ ekspeditsiya va boshqa idora osti tashkilotlari mavjud. Suvni taqsimlash va undan foydalanish bo'yicha kelishilgan qarorlar qabul qilishda yuqorida ko'rsatilgan davlat hokimiyati va davlat boshqaruvi organlari qatori boshqa vazirlik va idoralar ishtirok etishi belgilab qo'yilgan: Qishloq xo'jaligi vazirligi, Energetika vazirligi, O'zgidromet, Kommunal xo'jaligi vazirligi, suv qonunlari talablariga amal kilishni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat kompleksini nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Tahlillar iqlim o'zgarishi O'zbekistonda suv taqchilligini yanada keskinlashtirishini, 2000, 2008, 2011, 2014 va 2018 yillardagi kabi qurg'oqchilikning davomiyligi va davriyligi ko'payishiga olib kelishini hamda iqtisodiyotning suv resurslariga bo'lgan ehtiyojini qondirishda jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Keyingi 15 yil ichida aholi jon boshiga suv ta'minoti 3 048 kub metrdan 1 589 kub metrga qisqardi. Shuningdek, mamlakatda aholi soni yiliga o'rtacha 650-700 ming nafarga oshib, 2030 yilga borib 39 mln nafarga yetishi, ularning sifatli suvga bo'lgan talabi 2,3 mlrd. kub metrdan 2,7-3,0 mlrd kub metrga (18-20 foiz) yetishi kutilmoqda. Bu esa kommunal sohani yildan yilga suvga bo'lgan talabini ortishiga olib

keladi. So'nggi yillarda sanoat va energetika sohalari faol rivojlanib, ularning suvga bo'lgan talabi yil sayin oshib bormoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra bu sohalarning yillik umumiy suv iste'moli 1,9 mlrd kub metrdan 2030 yilga borib 3,5 mlrd kub metrga (1,8 barobar) yetadi [4]. Suv xo'jaligi sohasida suv resurslarini boshqarish tizimlari va prinsiplarini takomillashtirishda davlat boshqaruv samaradorligini oshirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, suv xo'jaligi tashkilotlarida hisobga olish tizimlarini takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda olib borilayotgan institutsional islohotlar doirasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Xususan, "Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" Qarorda 2022 yilning oxirigacha Suv xo'jaligi vazirligi rahbariyati faoliyati samaradorligining ustuvor yo'nalishlari va tayanch ko'rsatkichlari aniqlab berilgan [1]. Hozirgi vaqtda respublikada qishloq xo'jaligi klasterlarini tashkil etish faollashmoqda, ularning ayrimlari o'z hududlarida suv resurslarini boshqarish mas'uliyatini ham olishdi. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish lozimki, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimiz qishloq xo'jaligida shirkat xo'jaliklari (kolxoz, sovxoz) o'rnida fermer xo'jaliklari tashkil etilishi tufayli ilgari ichki xo'jalik tizimiga tegishli bo'lgan irrigatsiya tarmoqlari xo'jaliklarora foydalanuvchi tarmoqqa aylandi. Bu esa sug'oriladigan yerlardan foydalanish tizimini boshqarish samaradorligini oshirish, xo'jalik va ichki xo'jalik irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlari xizmatlari va ularni ekspluatatsiya qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha iqtisodiy-ekologik mexanizmlarni takomillashtirishni taqozo etadi. Mamlakatda suv bilan ta'minlash istiqboli va oldinda bajarilishi mumkin vazifalar belgilanayotgan sohalarda zamonaviy boshqarish usullarini joriy etish asosida suv xo'jaligi sektorida yanada islohotlarni chuqurlashtirish va suv xo'jaligi infratuzulmasini yaxshilashni shart qilib qo'ymoqda. "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunda suvdan foydalanish va suvni iste'mol qilish haqida quyidagilar ta'kidlangan:

- qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun-suvdan foydalanish va suv iste'moli bu-sug'oriladigan yerlarda, qishloq xo'jaligi korxonalarida, muassasalarda, tashkilotlarda, fermer va dehqon xo'jaliklarida, shuningdek fuqoralarda samarali suv rejimini yuzaga keltirish maqsadida yuzaga keladi;

- qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun suv obyektlaridan foydalanish umumiy va maxsus suvdan foydalanish va suv iste'moli uchun amalga oshiriladi;

- fermer va dehqon xo'jaliklari uchun suv olish limitisuv manbalarining kamayib ketishi holatlaridan tashqari vaqtlarda ularning roziligisiz o'zgartirilishi mumkin emas [5].

Ma'lumki, suv xo'jaligi kompleksining asosiy ishtirokchilari suvdan foydalanuvchilar bo'lishadi. Suv resurslaridan foydalanishni o'rganishda suvdan foydalanish va suv iste'moli atamalarini farqlash lozim. Suvdan foydalanish suv havzalaridan va suv oqimlaridan suvni olish bilan amalga oshirilsa, bunday suvdan foydalanuvchilar suv iste'molchilari guruhiga kiritilali. Bunda suvning bir qismi mahsulot tarkibiga o'tib yoki bug'lanib qaytmaydi. Asosiy suv iste'molchilarga sanoat, kommunal xo'jaligi, qishloq xo'jaligi kiradi. Suv, suv manbasidan olinmay turli texnologik operatsiyalarni amalga oshirish uchun ishlatilsa, bunday suvdan foydalanuvchilar-suvdan foydalanuvchilar guruhiga kiradi. Suvdan foydalanish aholining va xo'jaliklarning (suv transporti, sog'lomlashtirish, baliq xo'jaligi va boshqalar) suv resurslariga bo'lgan ehtiyojini qondirishni o'z ichiga oladi. Lekin suv resurslaridan foydalanishni chuqur o'rgana borilgan sari suvdan foydalanuvchilar va suv iste'molchilar o'rtasidagi chegara yuvilib (yo'qolib) ketadi. Ushbu tadqiqot ishida "suv bilan ta'minlovchi" iborasi, suvni yetkazib beruvchi va taqsimlovchi, quvurlar, sug'orish texnikalari va boshqalardan tashkil topgan muxandislik inshootlarini anglatadi. Mazkur ishda "suvdan foydalanuvchi", "suv iste'molchilari" va "qishloq xo'jaligi korxonalari" so'zlari bir xil ma'noni bildiradi. Shu bilan bir vaqtda suv xo'jaligi kompleksiga barcha suvdan foydalanuvchilarning ehtiyojini optimal qanoatlantiradigan, suv va unga bog'liq boshqa tabiiy resurslarni ratsional foylanish uchun zarur bo'lgan tadbirlar va inshootlar

yig'indisi sifatida qarash mumkin. Maishiy xizmat, ichimlik suvi ta'minoti, rekreatsiya, sug'orish, zax qochirish, gidroenergetika, baliqchilik, sanoat va suv transporti subyektlari suv xo'jaligi kompleksi ishtirokchilari hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida suv xo'jaligi kompleksi parametrlarini o'zaro uzviy bog'langan tabiiy omillar, iqtisodiy-ekologik va texnik qismlar orqali asoslanadi (1-rasm). Suv xo'jaligi kompleksi (SXX) parametrlarining har birini quyidagicha tavsiflash mumkin: tabiiy omillar qismi-suv xo'jaligi kompleksining faoliyat ko'rsatish va rivojlanish imkoniyatlarini, tevarak-atrofga ta'sirining ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlaydi; iqtisodiy-ekologik qism-barcha suv xo'jaligi ishtirokchilari, tarmoq va alohida suvdan foydalanuvchilarning manfaatlarini hisobga oladi. Uning vazifasi iqtisodiy-ekologik samaradorlikni maksimallashtirish va suv taqchilligi sodir bo'lganda yuzaga keladigan iqtisodiy-ekologik zararlarni minimallashtirishdan iborat; texnik qism-aniq mahalliy sharoitlarda SXX faoliyatini ta'minlovchi o'zaro bog'lik texnik qarorlar va tadbirlar tizimini amalga oshiradi. SXX alohida bir tarmoqning emas, balki butun iqtisodiyot uchun maksimal samaradorlikni ta'minlashi va shu bilan bir vaqtda tevarak-atrofga zararli ta'sirlar sodir bo'lishga yo'l qo'ymaslik kerak. Masalan, energetika ahamiyatidagi suv omboridan foydalanishda suvning sezilarli qismi suv xo'jaligi kompleksining boshqa ishtirokchilariga yetmay bug'lanish va filtratsiya oqibatida yo'qolib ketadi. Shunday holatlarni atom va issiqlik elektrostansiyalarining sovitish tizimi uchun qurilgan suv omborlarida, shuningdek baliq xo'jaligida ham kuzatish mumkin. Shu sababli suv resurslaridan kompleks foydalanishda suvning foydasiz yo'qolib ketishini maksimal darajada kamaytirishga erishish lozim. Ma'lumki, melioratsiya asosan ikki turga, ya'ni sug'orish va zax qochirish turlariga bo'linadi: sug'orish melioratsiyasi sug'oriladigan yerlardan foydalanishda olib boriladigan xo'jalik, muhandislik va tashkiliy tadbirlarni yig'indisini anglatadi. U suv taqchilligi yuz berayotgan tabiiy sharoitlarda ekin maydonlariga sug'orma suvlarni yetkazib berish va taqsimlashga yo'naltirilgan bo'ladi. Zax qochirish melioratsiyasi esa yerlarning sho'rlanishi zaxlanishi, botqoqlanishiga qarshi kurash tadbirlari bilan shug'ullanadi. Mamlakat iqlim sharoitida qishloq xo'jaligini intensivlashtirishga

asosan sug'orish yordamida erishiladi. Sug'orish maydoni kengayib borgan sari, u yerda intensivlashtirish imkoniyatlari kengayib boradi. Bugun yer va suv resursidan foydalanishning iqtisodiy-ekologik samaradorligini oshirish muammosini hal qilish, ilmiy asoslangan, sug'oriladigan yerlardan foydalanish tizimiga bog'liq ravishda uzoqni ko'ra bilish va prognoz qilishni talab qilmoqda. Respublikada sug'oriladigan yer maydoni 4,3 mln gektarni tashkil etib, jami suv resurslarining o'rtacha 90-91 foizi qishloq xo'jaligida, 4,5 foizi, kommunal-maishiy xo'jalik sohasida, 1,4 foizi sanoatda, 1,2 foizi baliqchilikda, 0,5 foizi issiqlik energetikasida, 1 foizi esa iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida foydalanilmoqda. Keyingi yillarda sanoat va energetika tarmoqlari jadal rivojlanib borayotganligi sababli ularning suvga bo'lgan ehtiyoji oshib bormoqda. 2030 yilga kelib sanoatning(energetika tarmog'ini ham qo'shib hisoblaganda) suvga bo'lgan ehtiyoji yiliga 2 km<sup>3</sup>dan 3,5km<sup>3</sup> gacha ko'payishi taxmin qilinmoqda [4]. Mamlakat qishloq xo'jaligida baliq xo'jaligi ham jadal rivojlanib bormoqda. Butun mamlakat bo'yicha 3600 dan ortiq baliq xo'jaliklari mavjud bo'lib baliq mahsuloti yetishtirilayotgan suv havzalarining umumiy maydoni 595 ming gektardan oshadi. Odatda baliq yetishtirish uchun toza ichimlik suvidan foydalanishadi. Lekin keyingi yillarda suv taqchilligi sababli daryo bo'ylarida joylashgan baliq xo'jaliklari sho'rlangan oqova suvlardan foydalanishga majbur bo'lmoqda. Mavjud suv resurslaridan foydalanishning asosiy muammosi suv resurslarini sug'oriladigan maydonlariga yetkazib borish va iste'mol qilishdir. Qaralayotgan muammo institutsional, texnologik va kadrlarga bog'liq sabablarga ega. Respublikada qishloq xo'jaligi ekinlari asosan an'anaviy usulda-egatlab sug'orilmoqda, yerlarni lazerli uskuna bilan jihozlangan tekislagichlar bilan tekislash ishlarining ko'lami juda past darajada qolmoqda. 2019 yildan boshlab suv tejoychi sug'orish texnologiyalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimi joriy qilindi. Natijada 77 470 gektar maydonda tomchilatib, 1 123 gektar maydonda yomg'irlatib, 2 000 gektar maydonda esa diskret usulda sug'orish texnologiyalari joriy qilindi. Shu bilan birgalikda ushbu zamonaviy sug'orish texnologiyasi joriy qilingan maydon ulushi pastligicha (6 foiz) qolmoqda [4].

**Xulosa va takliflar.** Agrar sektoridagi amalga oshirilayotgan radikal o'zgarishlar respublikada suv resurslarini boshkarishga sezilarli ta'sir qilmoqda. Paxta va bug'doy yetishtirishning davlat buyurtmalarini bosqichma-bosqich bekor qilinishi, bozor mexanizmlarini joriy etish va shunga bog'lik holda qishloq xo'jaligi davlat boshqaruv tizimini isloh qilinishi mazkur o'zgarishlarning tayanch yo'nalishlarini tashkil etadi. Ular mamlakatda iqtisodiy islohotlarning borishiga qarab suv resurslarini boshqarishning zamonaviy modeliga moslashishni taqozo qilmoqda. Bular esa suv resurslarini boshqarish va taqsimlashda o'zgarishlarni, shuningdek, iste'molchi talablariga samaraliroq va aniq javob beradigan infratuzulma va xizmatlarni yaratishni taqozo etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 oktabrdagi "Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi № PQ-4486-son Qarori, [www.lex.uz](http://www.lex.uz);
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 21 iyuldagi "Suv xo'jaligini boshqarishni tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida"gi № HQ-320-son Qarori, [www.lex.uz](http://www.lex.uz);
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 17 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi № PQ-3672-son Qarori, [www.lex.uz](http://www.lex.uz);
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6024-son Farmoni, [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
5. "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi - O'zbekiston Respublikasi Qonuni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).